

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№12

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
dekabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 613 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
<i>Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova</i>	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
<i>Turayeva Gulizahro</i>	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
<i>Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor</i>	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
<i>Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li</i>	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
<i>B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev</i>	
ISLOM MOLIYASI TAMOIYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
<i>Safarova Nasiba Gulmurod qizi</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
<i>Даниярова Улбосын Куатбаевна</i>	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
<i>Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna</i>	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
<i>Soliyev Azizbek Kamoldinovich</i>	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
<i>Голышева Елена Вячеславовна</i>	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
<i>Musayeva Dilnoza Dilshatovna</i>	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
<i>Уринов Адхамжон Акбарович</i>	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
<i>A.Xakimov, X.Xakimov</i>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
<i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
<i>Xusanova Maloxat Mengnorovna</i>	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
<i>Saidova Kamola Xoshimovna</i>	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARINING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	168
Nazarova A.N.	
АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ	172
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI	178
Avazov Ergash Xidirberdiyevich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI.....	182
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI	190
Dildora Yuldasheva	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI	194
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
MAHALLA BUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	200
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	



BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING USLUBIY JIHATLARI.....	206
<i>Azizova Zilola Lochinovna</i>	
KOSHI – BUNYAKOVSKIY – SHVARS INTEGRAL TENGSIZLIGI VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	212
<i>Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich</i>	
ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В АГРОПРОДОВОЛЬСТВЕННЫЙ СЕКТОР УЗБЕКИСТАНА: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ, ПЕРЕРАБОТКА БИОМАССЫ И СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ ПОСТУБОРОЧНЫХ ПОТЕРЬ	219
<i>Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович</i>	
HOVUZ BALIQCHILIGI XO'JALIKLARIDA REJALASHTIRISHNING MUDDATLARI VA BOSQICHLARI	227
<i>Dosmuratova Shaxista Kengashovna, Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich</i>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	233
<i>Ergashev Jamshid Jamoliddinovich</i>	
KON-METALLURGIYA KORXONALARINING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA KPINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	237
<i>Ergashov Botirjon Ergashovich</i>	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	245
<i>Ahmadjanov Ilyosbek</i>	
ACCELERATING SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT IN RURAL AREAS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	250
<i>O.Q. Xudayberdiyeva, Z.B. Negmatullayeva</i>	
ISSIQXONALARDAN FOYDALANISHNING OZIY-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI BO'YICHA MUAMMONI ASOSLASH VA UNING MILLIY MANFAATLARGA ALOQADORLIGINI ANIQLASH.....	256
<i>Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li</i>	
NAMANGAN VILOYATIDA DON MAHSULOTLARI NARXLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOZOR TAJRIBASI	260
<i>Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING JAHON TAJRIBASI: MUAMMO VA ISTIQBOL	264
<i>Mamadaliyev Akmaljon</i>	
ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ НАЛОГОВ В НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ.....	269
<i>Зайналов Джахонгир Расулович</i>	
FARG'ONA VODIYSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI	274
<i>Murodxiyeva Feruza Majidovna</i>	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI.....	280
<i>Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna</i>	
LABOR MIGRATION IN UZBEKISTAN: SOCIO-ECONOMIC TRENDS AND DEVELOPMENT PROSPECTS	285
<i>Razakova Barno Sayfiyeva</i>	
U-NET BASED POLYP SEGMENTATION ON KVASIR-SEG DATASET: PERFORMANCE EVALUATION AND COMPARISON WITH STATE-OF-THE-ART METHODS	289
<i>Mukhriddin Arabboev, Shohruh Begmatov, Sukhrob Bobojanov</i>	



IQTISODIYOT TARMOQLARI VA SOHALARI RIVOJLANISHIDA SUN'IIY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI	300
<i>Davletov Islambek Xalikovich, Normirzayev Ulmasjon Muzaffarjon o'g'li</i>	
IQTISODIYOTDA SAMARALI RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI	304
<i>Karimova Iroda Abdusattarovna</i>	
"MENING MAKTABIM" LOYIHASINI OMMALASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	311
<i>Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzayeva</i>	
ISSUES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE EDUCATION MARKET	320
<i>Inomiddin Imomov</i>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ОЦЕНКИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С УЧЕТОМ СТЕПЕНИ НОВИЗНЫ И ЭФФЕКТОВ	324
<i>Алиева Эльнара Аметовна</i>	
ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ В СИСТЕМУ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ	331
<i>Назарова Гулчехра Нурмуханбетовна</i>	
ECONOMIC GROWTH: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECT	336
<i>Bustonov Mansurjon Mardonakulovich</i>	
AGROKLASTERDAGI XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALAR MEKANIZMINING BUGUNGI HOLATI	342
<i>Xaydarov Sardor Komil o'g'li</i>	
SIMSIZ ALOQA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TEMIR YO'L STANSIYALARIDA POYEZDLAR HARAKATINI TASHKIL ETISH	350
<i>Joniqulov Egamberdi Shavkat o'g'li</i>	
GENDER SIYOSATI VA DEMOGRAFIK O'SISHNING INSON KAPITALIGA TA'SIRI	357
<i>Ruzmetova Gulira'no Atabekovna</i>	
СОСТОЯНИЕ ВИТАМИННО-МИНЕРАЛЬНОГО ОБМЕНА (ВИТАМИН D, КАЛЬЦИЙ, МАГНИЙ, ФОСФОР) У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА С ОСТРОЙ ПНЕВМОНИЕЙ НА ФОНЕ ВЕГЕТАТИВНЫХ ДИСФУНКЦИЙ	364
<i>Абдурахмонов Жасур Нематович, Шарипова Олия Аскаровна, Бахронов Шерзод Самиевич</i>	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILISHI	373
<i>Kalandarova Elnura Muzaffar qizi</i>	
ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ АО ХУДУДГАЗТАЪМИНОТ	377
<i>Хусанов Дурбек Нишанович</i>	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTIDA NAZORAT GABARIT QURILMALARINING ZAMONAVIY HOLATI, TAHLILI VA HARAKAT TAKRIBI GABARITLARINI ANIQLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH	384
<i>Xidirov Erkin Irgashovich</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA SAMARALI TAQSIMLASHDA RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI	391
<i>Amanbaev Amanali Ortazbaevich</i>	
GLOBAL DARAJADA FAOLIYAT YURITADIGAN BRONLASH TIZIMLARINING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI	396
<i>Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi</i>	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA INFRATUZILMA LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI	403
<i>Akmal Shodiyev</i>	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRUVCHI KORXONALARDA LIZING MUNOSABATLARI HISOBİ	408
<i>Inamov Abdusalom Muhamadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li</i>	



O'TKIR BRONXOLIT BILAN KASALLANGAN BOLALARDA KATAMNEZNING EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRIDA UZIGA XOS KECHISHI.....	412
Azimova Kamola Talatovna	
THEORETICAL ASPECTS OF STUDYING CONCEPTS RELATED TO YOUTH TOURISM	416
Norboyev Allayor Ismoilovich, Mansurova Zebuniso Abdurashidovna	
THE ESSENTIAL STRATEGIES WAYS OF SERICULTURE INDUSTRY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	420
Khojimatov Ravshanbek Rasuljonovich	
BLENDED LEARNING PLATFORMASI KANSEPSIYASI, ARXITEKTURASI VA FUNKSIONAL TUZILMASI.....	425
Qobulova Madina Tuxbatillo qizi, Mirzaaxmedov Muxammadbobur Karimberdiyevich	
ASALARICHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA FAROVONLIGIGA TA'SIRI: IQTISODIY TAHLIL VA EKONOMETRIK BAHOLASH	430
Kuanishbay Berdimuratov	
MARKETING EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHGA OID XORIJIY YONDASHUVLAR TAHLILI	434
Sobirov Azizbek Avazbekovich	
УЧЕТНО-АНАЛИТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ОРГАНИЗАЦИИ	443
Бабахонов Бабуржон Шухрат угли	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA SOLIQ IMTIYOZLARINI QO'LLASH MASALALARI.....	449
Ibroximov Muxammadjon Abdullajanovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA LOGISTIKA BOSHQARUVINING RAQAMLI MODEL VA UNING SAMARADORLIGI	453
Olimova Bahora Shuxratovna	
СУЩНОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	463
Муминходжаева Дилноза Рамизовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И АНАЛИТИЧЕСКИХ ПЛАТФОРМ	468
Дурманов Акмал Шаймарданович	
УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМ РАЗВИТИЕМ СОЦИАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РЕФОРМ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ЗДРАВООХРАНЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	477
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI.....	483
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA-INNOVASION JARAYONLARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	489
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
AGROKLAFTERLARDA ICHKI SOTISH JARAYONIDA TRANSFERT BAHOLARNI BELGILASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	495
Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich	
INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF MICE TOURISM AND ITS ADAPTATION TO THE CONDITIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	501
Ilkhomova Gulnoza Zayniddin kizi	
MUHANDISLIK KONSTRUKSIYALARIDA MURAKKAB SIRTLARNI CHIZMA GEOMETRIYA YORDAMIDA TAHLIL QILISH.....	507
Qutbtiddinov Hikmatillo Qudratillo o'g'li	
TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI	512
Umarova Munira Muxitdinovna	



JINDA ARRALI SILINDR TISHLARIDAN TOLANI AJRATISH JARAYONINI HAVO OQIMI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRUVCHI ENERGIYA TEJAMKOR QURILMANI MODELLASHTIRISH.....	516
Mirzakarimov Mirsharofiddin Mirzaabdurahimovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI TOMONIDAN ISHLAB CHIQUARILGAN MAHSULOTLARNI XORIJGA EKSPORT QILISH MEKANIZMLARI	524
Matkarimov Anvar Tajimatovich	
MUHANDISLIK KONSTRUKSIYALARIDA MURAKKAB SIRTLARNI CHIZMA GEOMETRIYA YORDAMIDA TAHLIL QILISH	528
Qutbtiddinov Hikmatillo Qudratillo o'g'li	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	533
Ismailov Bobir Salomovich	
QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA KAPITAL QO'YILMALAR XUSUSIYATLARI VA ULAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH	540
Baxriyev Muxiddin Sheraliyevich	
QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALAR VA ULAR BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI.....	545
Fayzullayev Murodjon Nematulayevich	
O'ZBEKISTONDA KLASSTER IQTISODIYOTI: INVESTITSİYALAR, EKSPORT VA SANOAT ISHLAB CHIQUARISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI (2022-2024-YILLAR KESIMIDA).....	550
O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich, Jabbarov Majidbek Erzodovich, Ruzmetova Gulira'no Atabekovna	
GLOBAL YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA EKOLOGIK, IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARNING TAHLILI	556
M.M.Muminova	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SMART TURIZM SHAROITIDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON ISTIQBOLLARI	565
Najmidinov Azizbek Bahrom o'g'li	
ТЕКУЩИЕ УГРОЗЫ И ВЫЗОВЫ, СВЯЗАННЫЕ С МИГРАЦИОННЫМИ КРИЗИСАМИ	571
Бегматов Хусанбек	
ELEKTRON TIJORAT SEKTORI UCHUN ONLAYN REKLAMA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	575
Rajabova Dilbar Ixtiyor qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON MEVA-SABZAVOTCHILIK SOHASIDA MAHSULOT YETISHTIRISHDAN TORTIB UNI BOZORGA CHIQUARISHGACHA BO'LGAN JARAYONDA NEYROMARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	582
Sadiy Shukrillo Asatillo o'g'li	
YOSH TADBIRKORLAR FAOLIYATIDA INNOVATSION G'OYALARNING AMALIY AHAMIYATI	590
Ergashev Oybek Xaydaraliyevich	
ТЕХНОЛОГИЯ НЕТРАДИЦИОННОГО СБАЛАНСИРОВАННОГО КОМБИКОРМА, С ОБОГАЩЕННЫМ БЕЛКОМ И ФЕРМЕНТАМИ СОСТАВОМ ИЗ ГРИБКА PLEUROTUS OSTREATUS.....	594
Ниезов Хусан Ниез угли	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH INDIKATOR TIZIMINING AHAMIYATI	601
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA DAVLAT SIYOSATI	608
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA DAVLAT SIYOSATI

Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li

University of Business and Science

"Moliya" kafedrası o'qituvchisi

E-mail: mrdabduganiyev@gmail.com

ORCID: 0009-0001-9456-3714

Annotatsiya. Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida eksportni rag'batlantirish bo'yicha davlat siyosatining o'rni va samaradorligi, eksport mexanizmlari, elektron platformalar hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan raqamli xizmatlarning ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, raqamli eksportni qo'llab-quvvatlashning amaliy mexanizmlari tahlil qilinib, istiqboldagi takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, eksport siyosati, raqamli platformalar, tadbirkorlik, davlat qo'llab-quvvatlovi, elektron savdo.

Abstract. This article examines the role and effectiveness of public policy in stimulating exports in the digital economy, including export mechanisms, electronic platforms, and the impact of digital services provided by the government. In addition, practical mechanisms for supporting digital exports are analyzed, and future development directions are proposed.

Keywords: digital economy, export policy, digital platforms, entrepreneurship, government support, e-commerce.

Аннотация. В статье исследуются роль и эффективность государственной политики в стимулировании экспорта в условиях цифровой экономики, экспортные механизмы, электронные платформы, а также влияние цифровых услуг, предоставляемых государством. Кроме того, анализируются практические механизмы поддержки цифрового экспорта и предлагаются перспективные направления развития.

Ключевые слова: цифровая экономика, экспортная политика, цифровые платформы, предпринимательство, государственная поддержка, электронная коммерция.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi eksport jarayonlarini tubdan o'zgartirmoqda. Globallashtgan bozor sharoitida mahsulot va xizmatlarni chet el bozorlariga chiqarish endilikda faqat an'anaviy logistika va savdo aloqalariga tayanib qolmay, balki elektron tijorat, raqamli to'lov tizimlari, onlayn marketing vositalari hamda xalqaro marketplace platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Shu bois davlat tomonidan eksportni rag'batlantirish siyosatida raqamli komponentlarni yanada kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1].

Mamlakatimizda so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tish, elektron hukumat tizimini kengaytirish hamda "yagona darcha" tamoyili asosidagi elektron xizmatlarni joriy etish orqali eksportchi tadbirkorlar uchun qulay va shaffof muhit shakllantirilmoqda. Raqamli infratuzilmaning izchil rivojlanishi, ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlarining global bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirib, mamlakat



eksport salohiyatining oshishiga xizmat qilmoqda. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida eksportni rag'batlantirishga qaratilgan davlat siyosati, uning samaradorligi hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyotning eksport jarayonlariga ta'siri masalalari xorijiy va milliy ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Jumladan, P. Krugman va M. Obstfeld o'z tadqiqotlarida tashqi savdoning iqtisodiy o'sishga ta'sirini asoslab, global raqobat sharoitida raqamli texnologiyalarning strategik ahamiyatini ta'kidlaydilar. M. Porterning "Milliy raqobat ustunligi" konsepsiyasida ham raqamli innovatsiyalar eksport raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omil sifatida qaraladi.

Mahalliy tadqiqotchilardan Hasanov B. o'z ilmiy ishlarida O'zbekiston eksport tizimining institutsional asoslarini tahlil qilib, logistika infratuzilmasini rivojlantirish eksport salohiyatini yanada oshirishga xizmat qilishini qayd etadi [3]. Yo'ldoshev Sh. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli eksport mexanizmlarining samaradorligi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash choralarning ijobiy ta'siri yoritilgan. Shuningdek, Hasanov B. logistika infratuzilmasini raqamlashtirish jarayonida mavjud imkoniyatlarni kengaytirish zarurligini asoslab beradi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli savdo platformalaridan foydalanish eksport jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtirib, xarajatlarni 30–40 % gacha qisqartirish imkonini beradi. Ushbu ilmiy ishni tayyorlash jarayonida tahliliy va statistik metodlardan foydalanilib, eksport ko'rsatkichlari bo'yicha Davlat statistika qo'mitasi hamda Savdo-sanoat palatasi rasmiy ma'lumotlari asos qilib olindi. Bundan tashqari, yirik eksportchi tadbirkorlik subyektlari faoliyati amaliy jihatdan o'rganildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada quyidagi tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi:

- tahliliy yondashuv — davlat siyosati va normativ-huquqiy hujjatlarni tizimli o'rganish;
- statistik tahlil — rasmiy davlat organlari ma'lumotlari asosida eksport ko'rsatkichlari dinamikasini baholash;
- qiyosiy metod — an'anaviy va raqamli eksport mexanizmlarining ustun va samarali jihatlarini solishtirish;
- amaliy kuzatish — eksportchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini bevosita o'rganish va umumlashtirish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlatning eksport siyosati zamonaviy raqamli yechimlarga tayangan holda shakllanmoqda. O'zbekistonda so'nggi yillarda eksportni rag'batlantirishga qaratilgan bir qator muhim raqamli yo'nalishlar izchil rivojlantirilmoqda. Xususan, eksport jarayonlarini raqamlashtirish doirasida "Yagona eksport oynasi" elektron tizimi joriy etilib, bojxona ruxsatnomalari elektron shaklga o'tkazildi. Shuningdek, mahsulotlarni sertifikatlash, kelib chiqish sertifikatlarini rasmiylashtirish jarayonlari ham raqamli formatda amalga oshirilmoqda [5].

Raqamli savdo platformalarining joriy etilishi eksport faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, "UzTrade", "Export.uz" kabi elektron platformalar mahalliy eksportchilarni xorijiy xaridorlar bilan bevosita bog'lab, xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bundan tashqari, onlayn ko'rgazmalar va virtual yarmarkalarning yo'lga qo'yilishi eksport mahsulotlarini masofadan turib targ'ib qilish va sotish jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtirmoqda.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimida ham raqamli yechimlardan faol foydalanilmoqda. Xususan, eksport oldi moliyalashtirish elektron arizalar asosida amalga oshirilmoqda, raqamli bank xizmatlari orqali eksport kreditlari taqdim etilmoqda hamda eksport sug'urtasi tizimi elektron shaklga o'tkazilmoqda. Ushbu mexanizmlar eksportchi subyektlar uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, jarayonlarning shaffofligi va tezkorligini ta'minlamoqda.

Shu bilan birga, raqamli logistika va transport xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishida ham muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Elektron yuk tashish va yuk ortish tizimlari (e-logistika) joriy etilib, transport yo'nalishlari bo'yicha onlayn kuzatuv tizimlari bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda. Bu esa logistika jarayonlarining uzluksizligi va nazorat qilinuvchanligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, raqamli eksportning afzalliklari sifatida bozorga kirish xarajatlarning kamayishi, chet ellik xaridorlarga chiqish imkoniyatlarining kengayishi, logistika jarayonlarining tezlashuvi, soliq va bojxona tartib-taomillarining soddalashtirilishi hamda eksport salohiyatining geografik qamrovining kengayishini qayd etish mumkin. Mazkur omillar raqamli iqtisodiyot sharoitida eksport hajmini oshirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval. 2020–2024-yillarda raqamli eksport infratuzilmasi ta'sirida O'zbekiston eksport ko'rsatkichlari [9]

Yil	Umumiy eksport hajmi (mlrd AQSh dollari)	Raqamli platformalar orqali eksport ulushi (%)	Eksportchi korxonalar soni	Yangi raqamli bozorlar soni
2020	13,0	8%	3 200	2
2021	15,3	12%	3 750	4
2022	17,5	17%	4 500	6
2023	19,8	22%	5 200	8
2024	22,1	28%	6 000	10

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahliliy qayta ishlangan.

Yuqoridagi 1-jadval O'zbekistonda raqamli eksport infratuzilmasining shakllanishi va izchil rivojlanishi eksport ko'rsatkichlariga bevosita va ijobiy ta'sir ko'rsatganini yaqqol namoyon etadi. Jumladan, eksport hajmining barqaror o'sishi kuzatilmoqda:

2020-yilda 13 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan umumiy eksport hajmi 2024-yilga kelib 22,1 mlrd AQSh dollariga yetgan. Bu 2020–2024-yillar oralig'ida 70 foizdan ortiq o'sishni anglatadi. Mazkur ijobiy dinamikaga elektron tijorat platformalarining kengayishi, eksport jarayonlarining raqamlashtirilishi hamda mahsulotlarni xalqaro marketplace'lar (Alibaba, Amazon, Ozon va boshqalar) orqali sotish imkoniyatlarining kengayishi muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Shuningdek, raqamli platformalar orqali amalga oshirilgan eksport ulushining sezilarli oshishi qayd etiladi. Agar 2020-yilda raqamli kanallar orqali eksport ulushi atigi 8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 28 foizga yetgan. Bu natija "UzTrade", "Export.uz", "E-auksion" kabi milliy raqamli platformalarning takomillashuvi, elektron logistika tizimlarining joriy etilishi, eksport uchun "yagona elektron oyna" (single window) tizimining keng qo'llanilishi hamda global miqyosda onlayn xaridlar hajmining oshishi bilan izohlanadi [9].

Bundan tashqari, eksportchi korxonalar sonining ko'payishi ham raqamli infratuzilmaning ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Xususan, eksportchi kompaniyalar soni 2020-yilda 3 200 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 6 000 taga yetgan. Bu holat raqamli ro'yxatdan o'tish jarayonlarining soddalashtirilgani, kichik biznes subyektlari uchun elektron tijorat va eksportga oid o'quv kurslari hamda treninglarning tashkil etilishi, shuningdek, eksport oldi moliyalashtirishning elektron shaklga o'tkazilishi bilan bevosita bog'liqdir.

Shu bilan birga, yangi raqamli eksport bozorlarining kengayishi ham muhim natija sifatida e'tirof etiladi. Agar 2020-yilda atigi 2 ta yangi raqamli bozor o'zlashtirilgan bo'lsa, 2024-yilda ularning soni 10 taga yetgan. Ushbu yangi bozorlar tarkibiga Rossiya va Yevropa onlayn savdo maydonchalari, Xitoyning raqamli savdo platformalari hamda Yaqin Sharq mamlakatlari marketplace'lari kiradi.

Umuman olganda, jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamli eksport infratuzilmasining jadal rivojlanishi:

- eksport geografiyasining kengayishiga,
- tadbirkorlar uchun tashqi bozorlarga kirish xarajatlarning kamayishiga,
- eksportchi korxonalar sonining oshishiga,
- mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshlik darajasining yuksalishiga xizmat qilmoqda

(2-jadval).

2-jadval. Namangan viloyatida 2020–2024-yillarda eksport hajmi (mln AQSh dollari hisobida) [9]

Yil	Eksport hajmi (mln AQSh dollari)	O'sish sur'ati (%)	Asosiy eksport mahsulotlari
2020	121,4	—	To'qimachilik, meva-sabzavot, charm
2021	148,7	+22.5	To'qimachilik, meva-sabzavot, poyabzal
2022	176,9	+18.9	To'qimachilik, quritilgan mevalar, choy
2023	209,3	+18.3	To'qimachilik, texnika qismlari, oziq-ovqat
2024*	237,5	+13.5	To'qimachilik, farmatsevtika, qurilish materiallari

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahliliy qayta ishlangan.



Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Namangan viloyatida eksport hajmi so'nggi 2020–2024-yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Xususan, 2020-yilda 121,4 mln AQSh dollarini tashkil etgan eksport hajmi 2024-yilda 237,5 mln AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. Bu holat 2020-yilga nisbatan deyarli ikki baravar o'sishni anglatadi [9].

Mazkur ijobiy dinamikaga yangi tashqi bozorlarning ochilishi, shuningdek, davlatning diplomatik va savdo siyosati doirasida eksportni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilayotgani sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston eksport siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- eksport qiluvchi tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, jumladan, kreditlar, kafolatlar va sug'urta mexanizmlarini keng qo'llash;

- eksport infratuzilmasini rivojlantirish, logistika va bojxona tizimlarini optimallashtirish;

- raqamli eksport platformalarini joriy etish hamda tadbirkorlar uchun onlayn savdo bozorlarini kengaytirish.

Shu jihatdan, raqamli infratuzilma eksport siyosatining eng muhim tarkibiy qismiga aylanganini qayd etish lozim. Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar orqali amalga oshirilayotgan eksport hajmi yildan-yilga oshib bormoqda, eksportchi korxonalar sonining ko'payishi raqamli infratuzilmaning izchil kengayishi bilan bevosita bog'liqdir. Shuningdek, Amazon, Alibaba, Ozon, Wildberries va ETSY kabi yangi onlayn bozorlarning faol o'zlashtirilishi mahalliy tadbirkorlar uchun xalqaro bozorlarga chiqishda keng imkoniyatlar yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, raqamli iqtisodiyot sharoitida eksportni rag'batlantirish bo'yicha davlat siyosati O'zbekistonda kompleks va izchil tarzda amalga oshirilayotganini qayd etish mumkin. Shu bilan birga, ushbu siyosatning samaradorligini yanada oshirish va tizimli yondashuvni kuchaytirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, eksport infratuzilmasini to'liq raqamlashtirish zarur. Bunda eksport sertifikatlari, bojxona ruxsatnomalari hamda transport hujjatlarini 100 foiz raqamli shaklga o'tkazish, shuningdek, eksport jarayonlarini yagona tizimda boshqarishga imkon beruvchi maxsus "super ilova" ni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun raqamli bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu borada elektron tijorat, raqamli marketing va xalqaro savdo yo'nalishlari bo'yicha bepul o'quv kurslarini tashkil etish, shuningdek, eksportchi tadbirkorlar uchun "Digital Export Academy" faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, eksport salohiyatini hududlar kesimida oshirish uchun hududiy eksport strategiyalarini ishlab chiqish hamda tarmoq asosida rivojlanayotgan kichik biznes subyektlarini milliy eksport tizimiga integratsiya qilish zarur. Bu yondashuv hududlar eksport imkoniyatlaridan samarali foydalanish, eksport geografiyasini kengaytirish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, taklif etilgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston eksport salohiyatini mustahkamlash, tadbirkorlik subyektlarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2022-yil 21-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydagi "Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–3697-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-3723272?ONDATE=06.02.2024%2000>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-apreldagi "Hududlarda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–212-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7611797>
4. Ebraico, M. (2015). An Assessment of the Performance of the Italian Tax Debt Collection System. Italy: Taxation Papers.
5. Muhammadjanovich, K. I. (2022). Effective Directions of Development of Entrepreneurship // Conference Zone. – P. 129–133.
6. Aripov, O. A. (2019). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ishbilarmonlik muhitini yaratish // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – № 2, mart–aprel.
7. Kazakov, O. S., & Kamoliddinov, I. (2021). Questions of the Effective Utilization of Industrial Resources in Enterprise Activity in the Conditions of Economy Globalization // The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. – Vol. 3, No. 04. – P. 114–119. <https://doi.org/10.37547/tajir/Volume03Issue04-18>
8. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari. — www.stat.uz

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100